OMON MATJON SHE'RIYATINING LINVOSTILISTIK TAHLILI

Raimova Anora Dilshodovna
Buxoro davlat universiteti filologiya
va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24220763

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining zabardast vakili Omon Matjon ijodi lingvostilistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Uning ijodida qo'llanilgan o'xshatishlar, badiiy tasvir vositalari, takrorlarning o'rni, jonlashtirishning mohiyati ochib beriladi. Leksik birliklar, sintaktik qurilish, obraz yaratishga xizmat qilgan birliklarning badiiy-estetik vazifasi ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, metafora, jonlantirish, anafora, leksik birlik, sintaktik parallelizm, she'riyat.

KIRISH

Zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik namoyondasi Omon Matjon chinakam iste'dod egasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. She'riyatning turli janrlarida muvaffaqiyat bilan ijod qilgan shoir tuyg'ularining samimiyligi, tilining shiradorligi, ifodasining ta'sirchanligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Chinakam shoir o'zining kayfiyatini, kechinmalarini o'zgalarga yuqtira oladi. Omon Matjonning she'rlarida ayni shu holat yaqqol seziladi. Yurakni to'lqinlantiradigan, tuyg'ularini uyg'otadigan tasvirni beradi. Bu tasvirlar she'rxonning badanini jimirlatadigan, ruhini bezovta qiladigan tarzda amalga oshiriladi.

Shoir she'rlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilinganda milliy ruh, insoniy fazilatlar ko'pincha Xorazm vohasida yashayotgan kishilarga mansubdir. She'rlarida ushbu vohaga xos so'z boyligidan, o'sha yurtning afsonalaridan, xorazmliklarning shirin lafzidan mohirona foydalana oladi. "Eng so'nggi xazina" nomli she'rida har bir band oxirida "Shu taxlitda zamin-zamon do'nibdi, Hamma shunga ko'nibdi" yoki "Bul ikkovi chin qo'shniga do'nibdi, Hamma bunga ko'nibdi!" tarzida takrorlanganligi ma'lum[2,193]. Ushbu parchalarda "do'nibdi" leksemasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak. "Do'nibdi" so'zi o'zbek tilida "aylanmoq", "o'zgarmoq" yoki "bir tomondan ikkinchi tomonga o'girilmoq" degan ma'nolarni anglatadi[3,675]. Bu so'z o'zbek tilining o'g'uz lahjasida (jumladan, Xorazm shevasida) hamda mumtoz va zamonaviy she'riyatda faol qo'llaniladi. U turk tilidagi *"do'nmek"* (qaytmoq, aylanmoq) fe'li bilan bir ildizga ega.

Shu o'rinda Omon Matjon qalamiga mansub bir she'r Xorazmning qadimiy yodgorliklari: Ichan qal'a va Dishan qal'aga bag'ishlangan. Ushbu nazmiy asar "Ikki qal'a" deb nomlanadi[2,156]. Unda vohaning tarixiy qiyofasi, qal'alarga ochib beruvchi badiiy ifodalar o'ziga xos tarzda tasvirlangan.

Xivada qal'a bor qal'a ichinda:
Biri- Ichon qal'a, birisi- Dishon.
Mashhurdir birining nomi ochunda,
Biri nurab yotar benazar, beshon.

She'rning lingvostilistik xususiyatlaridab biri unda metafora, o'xshatishlardan mahorat bilan qo'llanganidir:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ne sir bu? Bir yonda moviy tafakkur
Qulf urib turibdi sokin, beozor.
Bir yon- tengsiz jangda yengilgan mag'rur
Botir jasadidek egasiz va xor.

"Moviy tafakkur", "sokin", "beozor" jumlalari orqali Ichan qal'a nazarda tutilayotgan bo'lsa, "tengsiz jangda yengilgan mag'rur botir jasadidek egasiz va xor" misralarida Dishan qal'aning xarob holati mag'lubiyatga uchragan botir jasadiga o'xshatilgan. Bu o'xshatish orqali tarixiy obidaning ayanchli qiyofasi yanada ta'sirchan tasvirlanadi. Quyidagi misralarga ham e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak:

Azaliy beomon bir hukmdir bu:
Odam- Dishon qal'a, orzusi- Ichon!
Oz yashab ko'p zahmat ko'rsa hamki u,
Ruhin qoldirmog'i mumkindir omon.

Ushbu misralarda ko'rib turganimizdek, shoir insonni Dishan qal'aga, uning orzusini esa Ichan qal'aga qiyoslaydi. Bundan Dishan qal'a insonning tashqi hayoti, boshidan kechirgan qiyinchilik va zahmatlarini anglatsa, Ichan qal'a uning qalbidagi ezgu orzulari, ma'naviy olamini ifodalaydi.

Ma'lumki, badiiy matnning ifodaliligini ta'minlashda takrorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Takrorlar ma'noni kuchaytirish, emotsionallikni oshirish, mazmunning kitobxon qalbiga tezroq singdirilishi uchun xizmat qiladi. Takrorlar turlicha bo'ladi: gap takrori, so'z takrori, gap bo'laklari takrori va hokazo. Jumladan, shoir Omon Matjon ijodida ham takrorlarning o'ziga xos shakllarini kuzatish mumkin. Uning quyidagi she'rida gap takrori qo'llangan bo'lib, bu takror misrada ifodalangan mazmunga o'quvchi e'tiborini tortishga, misrada ifodalangan ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan[2,10]:

Ko'zlaringni yashirgil mendan,
O'tib ketay yoningdan befarq,
O'tib ketay yoningdan bedard,
Ko'zlaringni yashirgil mendan.

Borligimni payqama, mayli,
Burchaklarda, mayli, qayrilma,
Meni deb tinchingdan ayrilma,
Borligimni payqama, mayli…

Ushbu parchada 1-misraning 4-misrada qayta takrorlanganini ko'ramiz. Shuningdek, 1-bandda 2-3-misralardagi jumlalarning takrorlanganini ham e'tiborga molik. Mazkur hodisa badiiy ijodda anafora deb yuritiladi.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronov: "Anafora (yun. Anaphora- oldinga, yuqoriga chiqarish)- so'z yoki so'zlar guruhining misra yoki band boshida takrorlanishi, so'z takrorining xususiy ko'rinishi. Anafora ma'lum fikr, his-tuyg'u, holat va hokazolarni ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qiladi, tabiiy ravishda, she'rning xushohangligini ham oshiradi", deya izohlaydi[1,29]. Omon Matjonning quyidagi "Mehr ko'zda emas…" deb boshlanuvchi she'rida ham anaforadan foydalanganini ko'rishimiz mumkin[2,142]:

Mehr ko'zda emas, men bildim, bildim,
Mehr ko'zda degan gap biroz xató.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ko‘z go‘yo oyna qo‘l- aks etar unda
Osmonning bag‘rida ne bo‘lsa paydo.

Keltirilgan parchada “mehr ko‘zda” jumlasining 1- va 2- misralar boshida takrorlangani kuzatiladi. Ushbu hodisadan asosiy maqsad fikrni yanada ta’sirchan, jozibali va ifodali bayon etishdan iborat. Shuningdek, ijodkorning fikr va tuyg‘ularini o‘quvchiga yanada chuqurroq yetkazishni ta;minlaydi.

Badiiy matnda fikrni ta’sirchan, ravon va ifodali yetkazishda sintaktik parallelizmning ham ahamiyati katta. Unda jumla yoki misralar bir xil sintaktik qurilish asosida tuziladi. Bu matnda ohangdorlik hamda uyg‘unlikni hosil qilishga xizmat qiladi. Sevimli shoir Omon Matjon ijodida ham sintaktik parallelizmning yorqin namunalarini kuzatishimiz mumkin. Uning qalamiga mansub “Firuza” nomli she’rida bir xil sintaktik qurilishning takrorlanishi yaqqol ko‘zga tashlanadi[2,26]:

Kelmading.
Qushlar ko‘chib ketdi qoshimdan,
Tushlar cho‘chib ketdi yoshimdan,
Hushlar uchib ketdi boshimdan,
Kelmading.
Xazonlar to‘p bo‘ldi yillab men uchun,
Osonlar yo‘q bo‘ldi yillab men uchun,
Armonlar ko‘p bo‘ldi yillab men uchun…

Misralarda har bir so‘z bir xil grammatik shakl va gap qurilishi asosida yuzaga kelgan. Bunday uslub she’rning ohangdorligini oshirish bilan birga, lirik qahramon ruhiyatidagi iztirob, yolg‘izlik va umidsizlik holatlarini kuchaytirishga xizmat qilgan. Shuningdek, she’rda ritm va ohangdorlikni ta’minlaydi, shoirning fikr va tuyg‘ularini o‘quvchi qalbiga chuqurroq yetkazish,she’rning hissiy ta’sirchanligini oshirishda muhim vazifa bajaradi.

Badiiy matnda tasviriy ifodalar ham muhim uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular voqea-hodisa, narsa va shaxslarni o‘z nomi bilan emas, balki ularning muhim belgi-xususiyatlarini ochib beruvchi obrazli ifodalar orqali tasvirlashga xizmat qiladi. Omon Matjon ijodida ham tasviriy ifodalarning o‘ziga xos namunalarini uchratish mumkin[2,165].

Majnunolning ming yildan buyon
Oshiqlarning sirdoshi deya
Sharafiga she’rlar tizamiz!
Qish keladi- qor soqol mehmon,
Arra tutqazadi irjayib…
Kula-kula tolni kesamiz…

Ushbu misralarda shoir majnuntolni “oshiqlarning sirdoshi”, qishni esa “qor soqol mehmon” tarzida tasvirlaydi. Bu o‘rinda “oshiqlarning sirdoshi” ifodasi majnuntolning insonlar dardiga sherik bo‘luvchi, muhabbat va sog‘inch timsoliga aylangan obraz ekanligini anglatadi. “Qor soqol mehmon” tasviriy ifodasi esa qish faslining qor bilan qoplangan, oppoq manzarasini jonlantirib, unga insoniy xususiyat baxsh etadi. Shu bilan birga tasviriy ifodalar she’rning badiiyligini oshirish, obrazlilikni kuchaytirish uchun ham xizmat qilgan.

Omon Matjon she’riy ijodida unumli foydalangan badiiy tasvir vositalaridan biri bu jonlantirish (tashxis) hisoblanadi. Bu usul badiiy matnda tasvirning jonliligini ta’minlash, tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish, shuningdek, lirik kechinmalarning ta’sirchanligini oshirish vazifasini bajaradi. Omon Matjon ijodida ham bunday tasvirlar o‘ziga xos poetik mazmun kasb etgan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Jumladan, shoirning quyidagi she'riy matnida jonlantirishning bir necha yorqin namunalarini kuzatish mumkin[2,17]:

Belanchakda yotar koinot,
Chayqalmasa tinmasmi yig'i?!
Bizni chayqab turgan bu hayot
Kimlarningdir so'nggi qo'shig'i.

1-misrada "Belanchakda yotar koinot" misrasida koinot beshikka yotqizilgan go'dak singari tasvirlangan. Keyingi misralarda esa yig'i hamda chayqalish holatlari o'zaro bog'lanib, hayotning tinimsiz harakati va insoniyatning butun hayoti ramziy ifodalanadi.

Osmon ingrab chiqar goh tunda,
Qorga to'lar bog'lar bo'shlig'i.
Bahor va'da etadi unga
Bo'ronlarning so'nggi qo'shig'i.

Ushbu parchada esa osmon inson kabi ingraydigan, dard chekadigan mavjudot sifatida gandalantiriladi. Uning ingrashidan esa qor hosil bo'lib, bog'-u rog'larni to;ldiradi. Bahor esa unga hali yomg'irlar yog'ishini va'da beradi. Bahor go'yo kelajak haqida so'z berayotgan, umid uyg'otayotgan inson sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, "Yulduzlarning so'nggi qo'shig'i", "Bo'ronlarning so'nggi qo'shig'i" misralarida tabiat hodisalari va osmon jismlariga insonlarga xos qo'shiq kuylash xususiyati nisbat berilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon she'riyatining lingvostilistik tahlili shuni ko'rsatadiki, shoir badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanib, o'ziga xos poetic uslubni shakllantirgan. U turli xil badiiy vositalar orqali inson ruhiyati, tabiat manzaralari, muhabbat va milliy qadriyatlarni o'ziga xos tarzda yoritgan shoirlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent: "Akademnashr", 2010.
2. Omon Matjon. Seni yaxshi ko'raman. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.